

CHAKANDA O'SIMLIGIGA ZAMONAVIY QARASHLAR.

Bozorova Nigina Sobirjonovna

*Samarqand davlat Tibbiyot Universiteti
Farmatsevtika ishini tashkil qilish kafedrasini
Kafedra mudiri*

Narzullayeva Mexrangiz Azizxonovna

*Samarqand davlat Tibbiyot Universiteti
Farmatsevtika ishini tashkil qilish kafedrasini
assistenti*

Mo'minbayev Diyorbek Jasurbek o'g'li

Farmatsiya fakulteti 1-kurs talabasi

Annotatsiya: *Chakanda o'simligining tibbiyotda ishlatilish samaradorligi shundan iboratki, bu o'simlik qadimgi xalq tabobatida o'pka, jigar, oshqozon, suyak kasalliklarida ishlatilgan. Sibir sharoitida chakandadan dizenteriya, teri kasalliklari, revmatizmga qarshi shifobaxsh moddalar tayyorlaganlar. Ko'pgina qadimiy tibbiy asarlarda chakanda o'pka kasalliklarga qarshi ishlatilgan. Bundan tashqari chakanda preparatlari organizmlarda qon harakatlanishiga yordam beradi, mevalari tomoq kasalliklarini davolashda yordam beradi.*

Kalit so'zlar: *Chakanda mevasi, tibbiyot, vitaminlar*

СОВРЕМЕННЫЕ ВЗГЛЯДЫ НА ОБЛЕПИХУ

Аннотация: *Эффективность растения облепихи в медицине заключается в том, что это растение использовалось в древней народной медицине при заболеваниях легких, печени, желудка и костей. В условиях Сибири готовили лекарственные вещества против дизентерии, кожных болезней, ревматизма. Во многих древних медицинских работах облепиха использовалась против заболеваний легких. Кроме того, препараты облепихи способствуют циркуляции крови в организме, а ее плоды помогают при лечении заболеваний горла.*

Ключевые слова: *Плоды облепихи, медицина, витамины.*

MODERN VIEWS ON SEA BUCKTHORN

Annotation: *The effectiveness of the sea buckthorn plant in medicine lies in the fact that this plant was used in ancient folk medicine for diseases of the lungs, liver, stomach and bones. In Siberia, medicinal substances were prepared against dysentery, skin diseases, and rheumatism. In many ancient medical works, sea buckthorn was used against lung diseases. In addition, sea buckthorn preparations promote blood circulation in the body, and its fruits help in the treatment of throat diseases.*

Keywords: *Sea buckthorn fruits, medicine, vitamins.*

Chakanda (*Hippophae rhamnoides* L)– buta yoki daraxt, uzunligi to 10 metragacha bo'lib, o'simlikning shoxlarida 0,5-7 smli tikanlari bor. Novdalarda ularning miqdori va uzunligi yashash sharoitiga, iqlimni o'zgarishiga va butalarning shakliga bog'liq. Tikanlari ikki turda uchraydi: kichik (uzunligi to 0,5 sm gacha) , hamma vaqt mevali novdalarning oxirida uchraydi , bir xil paytda novdalarning o'rta qismida ham uchrashi mumkin. Tikanlarning ikkinchi turining uzunligi 2-7 sm, yozgi novdalarga o'xshab, kurtaklardan bir yillik novdalarda hosil bo'ladi, ular o'zgargan va kalta yozgi novdalarga o'xshaydi. Hosil bo'lgan yilda tikanlarda barglar ham joylashishi mumkin, yilning oxirida tikanlarning to'qimalari quriydi [2].

Hozirgi kunda chakandaning shifobaxsh xususiyatlariga katta ahamiyat berilmoqda, shuning uchun mevalarining kimyoviy tarkibi turlicha o'rganilayapti.

Chakanda – kam kaloriyali o'simlik bo'lib hisoblanadi, uning 100 gramm mevasi 30 kaloriya ajratadi. Chakanda mevalarida olma, shavel, yantar kislotalar uchraydi, ular yuqori fiziologik faollikga ega. Chakandaning ko'pgina o'rgangan navlarida shakar miqdori past bo'lib – 3-6% tashkil etadi. Chakanda mevalarining shifobaxsh xususiyatlari ularning tarkibida moy bo'lishi bilan bog'liq. Chakanda moyi tarkibida ko'p vitaminlar va boshqa biologik faol moddalar topilgan. Ularning miqdori 1- 18% bo'ladi [1].

Chakanda moyida vitaminlardan E, K, provitamin A hal bo'ladi, moy qoldiqlari tarkibida stearin tabiatidagi moddalar topilgan – sitosterin, fosfolipidlar, xolinlar, karotin va boshqalar. Chakanda tarkibida ko'p miqdorda vitamin E uchraydi. Chakandaning meva sharbatida vitaminlardan A, C, B₁, B₂, B₆, E, K, PP uchraydi. Askorbin kislotaning miqdori 37-268 mg/100 g mevada uchraydi. Chakanda mevalarining tarkibida aminokislotalar ham uchraydi, masalan, alanin, fenilalanin, glutamin, sistein, leysin, lizin, arginin, serin, valin va boshqalar. Bundan tashqari mevalarda efir moylar, mikro-va makroelementlar ham uchraydi. Chakanda mevalari tarkibida 15ta mikroelementlar topilgan, ular temir, magniy, marganes, mis, bor, oltingugurt, xlor, alyuminiy, kremniy va boshqalar. Bundan tashqari mevalarning tarkibida 8% moy topilgan, shu tufayli u juda yaxshi immunomodulyator va immunoprotektor bo'lib hisoblanadi. [3].

Chakandaning barglari va po'stlog'i ham shifobaxsh bo'ladi. Chakanda barglarining tarkibida askorbin kislota va karotinoidlar, R-faol moddalar uchraydi. Skelet novdalarining po'stlog'ida serotonin alkaloidi topilgan, bu alkaloid asab sistemasini faoliyatida katta ahamiyatga ega. Shunday qilib, chakanda organizmning tabiiy mahsulotlariga o'xshab xilma-xil farmakologik ta'sirga ega. Biologik faol moddalar orqali chakanda effektiv shifobaxsh o'simlik bo'lib ishlatiladi. Chakanda moyi ko'pgina kasalliklarga qarshi ishlatiladi, masalan oshqozon kasalliklari, ekzema, eroziya, gaymoritlar, ateroskleroz, avitaminozlarda. Chakanda moyining shifobaxsh ta'sirini ko'p olimlar o'rgangan. Bu moy kuchli regenerativ xususiyatga ega bo'lib,

hujayralarni shishlardan himoya qiladi va antiradiant hisoblanadi. Chakanda tarkibida beta-karotinni (provitamin A) bo'lishi odam embrionini rivojlanishiga yordam beradi, homiladorlik yaxshi o'tib, odamning umumiy holati va o'sishi yaxshi darajada bo'ladi. Chakanda yuqumli kasalliklarga ham qarshi ishlatiladi. Og'ir jarrohlik operasialardan so'ng tezda yaralarni tuzatadi, qon tomirlarini elastik holatga keltiradi. Tokoferol moddasini yetarli miqdorda bo'lishi yurakning normal holatga keltiradi. Chakanda mahsulotlarini profilaktik jihatdan iste'mol qilishi odamlarning sog'lom bo'lishiga keltiradi . [1].

Rossiyada shifobaxsh va aromatik o'simliklar institutida yangi antivirus dori ishlab chiqilgan, u chakanda barglaridan tayyorlangan, uning nomi - giporamin. Bu dori mikroblarga, herpes, adenovirus, patogen zamburug'lar va bakteriyalarga qarshi ishlatiladi. Chakanda parfyumer sanoatida ham ishlatiladi, undan shampunlar, kosmetik kremlar, teri tozalovchilari, soch uchun bo'yoqlar tayyorlaydilar. [4].

Shunday qilib bugungi kunda chakandani ko'p sohalarda ishlatadilar uni XX1 asrning o'simligi deb hisoblaydilar. Chakandani ko'p mamlakatlarda o'rganadilar. Oxirgi yillarda MDH mamlakatlarida, Xitoyda, Mongoliyada katta sanoat plantasiyalar tashkil etganlar. Ko'pchilik ilmiy ishlar Oltoyda, Sibir bog'dorchilik institutida, Nijni novgorod selxozakademiyasining botanika kafedrasida o'tkaziyalayapti. Rossiyada ilmiy ishlar natijasida 50 yaqin har xil navlar yaratilgan. Hozirgi kunda ular har xil chet mamlakatlar bilan hamkorlikda genetikoseleksion ishlar olib bormoqdalar .

Rossiyadan tajribani orttirib, xitoyliklar chakandani juda katta maydonlarda o'stirayaptilar. Xitoyliklar uchun chakanda strategik o'simlik bo'lib hisoblanadi. Bu o'simlik orqali ekologik holat yaxshilanadi, suv va shamol eroziyasi bilan kurash o'tkazish mumkinligi aniqlangan. Xitoy sharoitida ko'pgina unumli tuproqlar yuvilib ketmokda. Buning natijasida ko'pgina tuproqlar foydalanishdan chiqadi. Shuning uchun chakanda orqali, uning biologik xususiyatlari bilan foydalanib bu muammolarni yechish mumkinligi aniqlangan [3].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAT RO'YXATI:

1. Кабулова Ф.Д., Бабаджанов Ф.Н. Особенности зарафшанской популяции облепихи (*Hipporhaerhamnoides*L.) и перспективы ее практического применения //Материалы международной научной конференции «Развитие ботанической науки в Центральной Азии и интеграция впроизводство», Ташкент, 2004.С. 399-400..
2. Кабулова Ф.Д. О введении в культуру облепихи крушиновидной в Узбёкистане. «Материалы республиканской научно-практической конференции Интродукция растений: проблемы и перспективы» Хива, 2003, стр.29-30.
3. Каримов Г., Сарымсаков З.Х., Аллаяров И.У., Кабулов А.Д. Облепиха крушиновидная и ее красильные свойства. Узб. Биол. Журнал, №6, 1977, с. 43-45.
4. Неумывакин Иван Павлович Облепиха. Мифы и реальность. 2019